

O'QUV DASTUR PASPORTI

*O'quv dasturi uzluksiz tibbiy va farmasevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi
kengashning 2025 yil 16 iyun №MTUK 12-sonli dastur tasdiqlash ro'yxatiga
asosan tasdiqlangan*

Qayd raqami: IXT-1296




Amal qilish muddati 2030 yil sentyabrgacha

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi						
Kafedra/ bo'lim	Oftalmologiya kafedrası						
O'quv dastur nomi	Oftalmologiya						
O'qish turi	Ixtisoslashtirish						
O'quv dastur mualliflari	Prof. Komilov X.M., prof. Kasimova M.S., dos. Normatova N.M., Babaxanova D.M., Maksudova L.M., Xakimova Z.K., Xamraeva G.X., Abdullaev Sh.R.						
Siklning umumiy soati	1296 kredit						
Dars o'tuvchi pedagoglar							
							
X.M. Kamilov T.f.d., professor, kafedra mudiri	M.S. Kasimova T.f.d., professor	N.M. Normatova DSc., dotsent	D.M. Babaxanova T.f.n., dotsent	L.M. Maksudova DSc., dotsent	Z.K. Xakimova DSc, dotsent.	G.X. Xamraeva DSc, dotsent.	Sh.R. Abdullaev DSc, dotsent.
Maqsad	Oftalmologlarning professional kompetensiyalarini takomillashtirish asosida, ularda oftalmologik kasalliklarni klinik manzarasi, simptomlarini aniqlash, oftalmologik tekshirish usullaridan samarali foydalanish qobiliyatini kuchaytirish, xalqaro kasalliklar tasnifiga (XKT-10 yoki MKB-10) mos keladigan kasalliklarning nozologik shakllari, ambulator va stasionar sharoitda kasalliklarni tashhislash, profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mukammallashtirish va yangilash.						
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	Poliklinika va stasionar oftalmologlari						
Dastur vazifalari	1.Ko'z kasalliklarini oldini olish - Aholida uchraydigan eng keng tarqalgan oftalmologik kasalliklar (refraksion nuqsonlar, katarakta, glaukoma, kornea va retina kasalliklari, yallig'lanish va infeksiyon kasalliklar) profilaktikasi bo'yicha samarali choralarni o'rgatish. - Profilaktik ko'riklar, vizual gigiyena va xavf omillarini kamaytirish bo'yicha targ'ibot ishlari.						

	2. Tibbiy madaniyatni oshirish - Aholiga ko'z salomatligini saqlash, ko'rish gigiyenasi va profilaktik ko'riklarning ahamiyati haqida ma'rifiy ishlarni tashkil etish. - O'quvchilar, o'qituvchilar va keng jamoatchilik bilan tushuntirish ishlari. 3. Kasbiy va ma'naviy qadriyatlar - Shifokorlarda bemorga nisbatan insonparvarlik, sabr-toqat, to'g'ri kommunikatsiya qilish ko'nikmasini shakllantirish. - Kasbiy mahorat va ma'naviy qadriyatlarni uyg'unlashtirish. 4. Zamonaviy klinik protokollarni qo'llash - JSST va xalqaro assotsiatsiyalar tavsiyalariga asoslangan milliy va xalqaro protokollarni o'rgatish. - Kasalliklarga individual yondashuvni shakllantirish. 5. Dalillarga asoslangan tibbiyot - Oftalmologik kasalliklar diagnostikasi va davolashida qarorlarni ilmiy asoslash. - Yangi tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish. 6. MKB-10 bo'yicha tashxis qo'yish - Ko'z kasalliklarini to'g'ri kodlash, hujjatlashtirish va statistik tahlil qilishni o'rgatish. 7. Epidemiologiya va patogeneza - Oftalmologik kasalliklarning rivojlanish mexanizmlari, xavf omillari, yoshga bog'liq xususiyatlari va klinik kechishini chuqur o'rganish. 8. Zamonaviy diagnostika usullari - Biomikroskopiya, oftalmoskopiya, gonioskopiya. - Perimetriya, tonometriya, pachimetriya. - Ultratovush diagnostikasi (A/B skan, UBM). - AS-OCT, makula va nerv tolalari kompleksini baholash. - Korneal densitometriya va topografiya. - Elektrofiziologik tekshiruvlar (ERG, 3BIT). - OCT-angiografiya. - Laborator va genetik testlar. 9. Ambulator sharoitda tashxislash va davolash - Poliklinikalarda keng tarqalgan kasalliklarni tashxislash va davolash: refraksion nuqsonlar, katarakta, glaukoma, keratokonus, yallig'lanish va infeksiyalar. - Integratsiyalashgan yondashuvni qo'llash. 10. Shoshilinch oftalmologik holatlarda yordam - Ko'z jarohatlari, kuyishlar, yallig'lanish, to'satdan ko'rish pasayishi, glaukoma xuruji kabi shoshilinch holatlarda tezkor yordam algoritmlarini o'rgatish. Dastur umumiy oftalmologiyani barcha bo'limlarini (kornea, retina, glaukomalar, neyro-ofthalmologiya, okuloplastika, pediatrik oftalmologiya) qamrab oladi. Har bir bo'limda kasalliklarning diagnostikasi, davosi, profilaktikasi va dolzarb ilmiy yondashuvlar alohida ko'rib chiqiladi.
Modullar	1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishning

	me'yoriy hujjatlari. O'zbekiston Respublikasida oftalmologiya xizmatini tashkil qilish. Sog'liqni saqlash tizimi birlamchi bo'g'inida davolash-sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkillashtirish. 2. Ko'ruv a'zolari va yordamchi apparatining embriogenezi, klinik-anatomotopografik hususiyatlari. Ko'ruv a'zolarini funksional va klinik tekshirish usullari asoslari. Refraksiya va akkomodatsiya asoslari. Refraksiya anomaliyalarining klinikasi, diagnostikasi korreksiya va davolash usullari muammolari. 3. Ko'z mushak apparati kasalliklari muammolari. G'ilaylikning etiopatogenezi, tasnifi, sinflanishi, klinikasi va davolash usullari. Ko'z yordamchi apparatining tug'ma va orttirilgan kasalliklari muammolari: qovoq kon'yunktivasining yallig'lanish va distrofik kasalliklari. Shox parda va skleraning yallig'lanish, tug'ma va distrofik kasalliklari muammolari. 4. Ko'z qon tomir pardasining tug'ma va yallig'lanish kasalliklari muammolari. Distrofik va sindromal o'zgarishlar asoslari. To'r pardaning tug'ma, yallig'lanish va distrofik kasalliklari muammolari. Tapetoretinal abiotrofiyalar. To'r pardaning kon tomir kasalliklari va bolalardagi xususiyatlari asoslari. To'r pardani ko'chishi. Vitreoretinal jarroxlik muammolari. Ko'ruv nervi tug'ma va yallig'lanish kasalliklarining o'ziga hos hususiyatlari. Ko'ruv nervining dimlanishi. 5. Gavxar kasalliklari etiopatogenezi, sinflanishi, klinikasi, diagnostikasi asoslari. Erta aniqlash va zamonaviy davolash asoslari. Oftalmotonus normada va patologiyada. Glaukomaning etiopatogenezi, sinflanishi, klinikasi, diagnostikasi, erta aniqlash va davolash asoslari. Tug'ma va o'smir yoshdagilar glaukomasi muammolari. 6. Ko'ruv a'zolarining jarohatlari asoslari. Jarohatlardan so'nggi reabilitatsiya va dispanserizatsiya muammolari. OITS kasalligida ko'ruv a'zolarini o'zgarishlari muammolari. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirining 2003 yil 1 martdagi 137 sonli Buyrug'i.	
O'qish bazalari	RKOSh	RIKMIATM
		
	"Optimed" ko'z klinikasi	XK "SAIF OPTIMA"

**Simulyatsion
asbob/uskunalar**



--	--